

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.S.Turdiyev</b>	
O'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlar tahlili .....	182
<b>B.E.Xusanov</b>	
Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari .....	187
<b>F.M.O'sarov</b>	
Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash mezonlari .....	190
<b>F.F.Dadaboyev</b>	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	193
<b>Sh.Sh.Dadaxanov</b>	
O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlari tamoyilini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari .....	201

---

SIYOSAT

<b>J.Q.Yusubov</b>	
Davlat xizmatida yetuk kadrlarni shakllanishi – mamlakat taraqqiyotining asosi .....	206
<b>B.Yalgashev</b>	
“Siyosiy falsafa” va “Siyosat falsafasi” o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari.....	210
<b>A.Xamdamiyov</b>	
Fuqarolik jamiyati bilan bog'liq zamonaviy konsepsiyalarning mohiyati .....	214

---

TARIX

<b>B.A.Usmonov</b>	
Amir Temurning Xitoy yurishiga oid ba'zi mulohazalar .....	219
<b>A.H.Адигезалов</b>	
Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках гууам .....	224
<b>F.X.Utayeva, M.A.Muxamedjonova</b>	
To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni .....	231
<b>A.H.Boltayev</b>	
V.A.Shishkinning shaxsiy arxiviga bir nazar .....	235
<b>G'R.Mirzayev</b>	
Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning yaqin qo'shnichilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorligi .....	239
<b>O.N.Nasirov</b>	
Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi .....	249
<b>O.I.Rajabov</b>	
Shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlar .....	253
<b>П.Х.Исмоилова</b>	
Деятельность отделения русско-азиатского банка в туркестане в конце XIX в начале XX века .....	257
<b>H.S.Yusupov</b>	
Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li Niyoziyning mudarrislik faoliyati .....	262
<b>Sh.Y.Oxunjonova</b>	
Toshkent shahri bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining ijtimoiy tarkibi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1990-2024 yillar).....	265
<b>A.R.Nurmatov, D.X.Boyyeddayev</b>	
Imom al-Buxoriy- buyuk muhaddis olim.....	272
<b>П.Х.Исмоилова</b>	
Банковская деятельность в Ферганской долине: возникновение и ее предпосылки в XIX—XX веках.....	276
<b>G.X.Xasanboyeva</b>	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi sug'orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1950-1970 yillar).....	281

## IMOM AL-BUXORIY- BUYUK MUHADDIS OLIM

## ИМАМ АЛЬ-БУХАРИ – ВЕЛИКИЙ УЧЕНЫЙ

## IMAM AL-BUKHARI - A GREAT SCIENTIST

**Nurmatov Akramjon Rahmanaliyevich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Namangan davlat universiteti, tarix f.b. PhD**Boydedayev Dostonbek Xusniddin o'g'li<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalish talabasi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Movarounnahr hududida IX-XII asrlarda yuz bergan renessans jarayonining eng yorqin vakillaridan biri, dinning ulug' vakillaridan- Imom al-Buxoriyning hayot yo'li va ilmiy faoliyatiga to'xtalib o'tiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi Imom Buxoriyning ibratli hayoti va samarali faoliyatini yanada chuqurroq tadqiq etish va kitobxonlar orasida ommalashtirish hisoblanadi. Bundan tashqari Imom al-Buxoriydek buyuk insonlarning avlodi sifatida ularning faoliyatini tadqiq etish hamda kreativ yondashish bugungi kunda har bir tadqiqotchining burchi bo'lishi kerak, desak to'g'ri bo'ladi.

Imom al-Buxoriyning hayot yo'li hamda faoliyatini o'rganish va tadqiq etishda tarixchilar tomonidan keltirilgan aniq faktlar, adabiyotshunos olimlarning ma'lumotlari hamda diniy ulamolar hamda hadisshunoslarning ma'lumotlariga tayanish, bir nechta soha vakillari tomonidan o'z sohasidan kelib chiqib berilgan ma'lumotlarni o'zaro solishtirish, tahlil qilish va umumlashtirish to'g'ri yo'l hisoblanadi.

Fanning turli sohasi vakillari tomonidan Buxoriy hayoti hamda faoliyati haqida keltirilgan ayrim raqamlarda nomutanosibliklar ko'zga tashlanadi. Bunday holat kitobxonlar hamda Buxoriy hayotiga qiziquvchi insonlar uchun noqulayliklar tug'diradi. Ushbu maqolada shu nomutanosibliklarga ham to'xtalib o'tiladi.

**Аннотация**

Данная статья посвящена жизненному пути и научной деятельности имама аль-Бухари, одного из ярчайших представителей процесса Возрождения, одного из великих представителей религии, происходившего в регионе Моваруннахр в IX-XII веках.

Основная цель исследования – дальнейшее изучение образцовой жизни и плодотворной деятельности Имама Бухари и популяризация ее среди читателей. Кроме того, будучи потомком таких великих людей, как Имам аль-Бухари, можно справедливо сказать, что исследование их деятельности и творческий подход должны быть обязанностью каждого исследователя сегодня.

При изучении и исследовании жизненного пути и деятельности Имама аль-Бухари мы опираемся на конкретные факты, представленные историками, сведения литературоведов, религиоведов и хадисоведов, а также сведения, предоставленные представителями нескольких направлений по своей тематике. Правильный способ сравнения, анализа и обобщения данных.

Заметны несоответствия в некоторых цифрах, приводимых представителями различных областей науки о жизни и деятельности Бухари. Такая ситуация создает неудобства для читателей и людей, интересующихся жизнью Бухари. В этой статье основное внимание будет уделено этим различиям.

**Abstract**

This article focuses on the life path and scientific activity of Imam al-Bukhari, one of the brightest representatives of the renaissance process, one of the great representatives of religion, which took place in the Movarounnahr region in the 9th-12th centuries.

The main purpose of the study is to further study the exemplary life and effective activity of Imam Bukhari and popularize it among readers. In addition, as a descendant of great people like Imam al-Bukhari, it is right to say that researching their activities and taking a creative approach should be the duty of every researcher today.

In studying and researching the life path and activities of Imam al-Bukhari, we rely on specific facts presented by historians, information from literary scholars, religious scholars and hadith scholars, and information given by representatives of several fields based on their field. It is the right way to compare, analyze and summarize data.

Inconsistencies are noticeable in some figures given by representatives of various fields of science about Bukhari's life and work. Such a situation creates inconvenience for readers and people interested in Bukhari's life. This article will focus on these disparities.

**Kalit so'zlar:** Imom al-Buxoriy, muhaddis, Qur'oni karim, hadis, Buxoro, Samarqand, Xartang, sahih, nosahih, Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy, roviy, sahoba.

**Ключевые слова:** Имам аль-Бухари, мухаддисы, Священный Коран, хадисы, Бухара, Самарканд, Хартанг, сахих, несахих, Халид ибн Ахмад аз-Зухали, рассказчик, собеседник.

**Key words:** Imam al-Bukhari, muhaddis, Holy Qur'an, hadith, Bukhara, Samarkand, Hartang, sahih, non-sahih, Khalid ibn Ahmad al-Zuhali, narrator, companion.

### KIRISH

IX-XII asrlarga kelganda o'lkamiz hududida turli xil mustaqil davlatlar mavjud edi. Jumladan, Somoniylar davlati, Qoraxoniylar davlati, Xorazmshohlar davlati kabilar. Ushbu davlatlar tuzumining asosini islom dini tashkil etib, bu davrda aholining dindan xabardorlik darajasi juda ham yuksak edi. Dinni o'rganish va uni to'g'ri anglay olish ortidan odamlarda ilmga bo'lgan intilish va ixlos kuchayib boradi. Ana shunday ilmga ixlos qo'ygan insonlardan biri Imom al-Buxoriy edi. U o'zi istagan ilmlarni olish uchun ko'plab musulmon mamlakatlarini kezib chiqdi, 40 yildan ortiq umrini hadis ilmini o'rganish uchun sarflagan muhaddis olim sifatida nom qoldirdi.

Hadislar Qur'oni Karimdagi oyatlarni tushuntiradi, sharoitga tatbiq etadi. Shunga ko'ra ular o'z ahamiyati jihatidan Qur'oni Karimdan keyingi eng muhim qo'llanmadir. Muhaddis esa "hadis biluvchi", "hadis aytuvchi" degan ma'noni beradi[1].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hadislarni yig'ish payg'ambarimiz davrlaridan boshlangan. Lekin vaqt o'tishi bilan turli yolg'on ma'lumotlar to'qilishi natijasida hadislarni sahih va nosahihlarga ajratib olish qiyinlashib borgan. Buxoriy o'z hayotini ana shunday murakkab ishga bag'ishladi.

Hadislarni aytib beruvchilar "roviiy" deyilgan. Ular sahobalar- payg'ambarimizni ko'rgan va suhbatlashgan kishilar, tobeinlar- payg'ambarimizni emas, sahobalarni ko'rib, ulardan eshitganlarni aytuvchilarga bo'lingan[2].

Buxoriyning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo'lib, u hijriy 194-yil shavvol oyining 13-kuni, ya'ni 810-yil 20-iyulda Buxoro shahrida tavallud topgan. Uning otasi ancha erta vafot etgan va Buxoriyning tarbiyasi bilan onasi shug'ullangan. Buxoriy yoshligida ko'zi ojiz bo'lib qolgan, keyinchalik onasining iltijolari natijasida Buxoriyning ko'zlari tuzaladi. Buxoriy yoshligidanoq o'zining o'tkir zehni va ilmga bo'lgan qiziqishi bilan ko'pchilikning e'tiboriga tushgan. U Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiiy kabi olimlarning hadis to'plamlarini yodlagan, Shayx Dohiliy ustozlaridan biri bo'lgan. 825-yil Buxoriy oilasi bilan Hijozga yo'l oladi, u yerda bir necha yil qolib, Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod shaharlarida yashagan va hadis va fiqh ilmlarini o'rgangan[3].

Buxoriy ko'plab olimlardan saboq olishdan tashqari ko'pgina shogirdlarga ham ustozlik qilgan. Ar-Ramodiy, al-Masnadiy, Muhammad ibn Xalif ibn Qutayba, al-Harbiy, at-Termiziy, al-Marvaziy, al-Hajjoj uning yetuk shogirdlaridan edi.

Uzoq yillik safarlardan so'ng, 863-868-yillarda Nishopurda yashab, madrasada dars bergan. Umrining oxirlarida Buxoroga qaytib keladi. Bu yerda Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan aloqalari yomonlashadi. Sabab amir "Al-jome' as-sahih" va "At-tarix" kitoblarini o'qib berishni talab qiladi. Buxoriy esa bunga javoban ilmni xor qilmayman, uni hokimning eshigiga olib bormayman, kerak odam o'zi kelsin deydi. Shundan so'ng amir unga Buxoroni tark etishni buyuradi. Buxoriy Samarqandga ko'chib ketadi va Xartang qishlog'ida yaqinlari bilan bir muddat yashagach, hijriy 256-yil, milodiy 870-yil 1-sentabrda 60 yoshida vafot etadi va shu yerga dafn qilinadi.

Imom al-Buxoriy islom ta'limotiga oid 20 dan ortiq asar yozdi. Birgina "Al-jome' as-sahih" asariga 7275 ta hadis kiritilgan[4].

Ayrim manbalarda Buxoriyning yuz minglab hadis to'plab, ularning saralanganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan[5]. Buxoriy ilmiy izlanishlarini Basrada boshlaydi. Uning hadislar to'plamida 1080 ta muhaddisning hadislari kiritilgan. Uning asarlari orasida tarix ilmiga bag'ishlangan "Tarixi Kabir"- "Buyuk tarix" kitobini yozgan.

"Al-jome' as-sahih" ni yozib tugatgach, Buxoroga qaytib kelgan va ta'lim berish bilan shug'ullangan. Manbalarda Buxoriyning 600 000 ga yaqin hadislarni yoddan bilganliklari aytiladi va ular ichidan 200000 sahifasini ajratib tasnif qilganlar[6].

Buxoriy tomonidan yaratilgan boshqa asarlarga to'xtaladigan bo'lsak, u "At-tarix al-avsat", "At-tarix as-sag'ir", "Al-adab al-mubrad", "Barr ul-volidayn" kabi qimmatli asarlar muallifidir.

"Al-jome' as-sahih" asaridagi 7275 ta hadisning 4000 tasi takrorlanmaydigan hadis ekanligi ham Imom al-Buxoriyning ushbu asar ustida qanchalik ishlaganligi hamda asarni qay darajada mukammal yozganligidan dalolat beradi. Ushbu asar yozilganiga 1200-yildan oshgan bo'lsa-da, hanuzgacha u barcha islom diyorlari va musulmon xonadonlarida Qur'oni Karimdan keyin turuvchi muqaddas manba hisoblanadi.

Buxoriy haqida Ja'far ibn A'yun Boyqandiy shunday deydi: "Agar o'z umrimni Imom Buxoriyning umrlariga qo'shib, u kishining hayotlarini ziyoda qilishga qodir bo'lsaydim, albatta, shunday qilar edim. Zero, mening o'limim bir insonning vafoti, xolos. Ammo u zoti sharifning vafot etishi ilmning ketishi va olamdan o'tishidir".

### NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatib turibdiki, Imom al-Buxoriyning hayot yo'li va ilm yo'lidagi faoliyati juda ham salmoqli bo'lgan. Uning buyuk faoliyatiga minnatdorlik sifatida Buxoriy avlodlari ham uning nomini doimiy ravishda abadiyatga muhrlash uchun harakat qilishadi.

Jumladan, Imom Buxoriy shaxsiyatiga hurmat sifatida XVI asrda bu zotning maqbarasi oldiga masjid qurilgan. 1998-yil 23-oktabr kuni respublikamizda Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi nishonlandi. Xartang qishlog'ida "Imom al-Buxoriy" yodgorlik majmuasi qurildi, 4 jildlik "Al-jome' as-sahih" kitobi o'zbek tilida nashr etildi[7].

Imom al-Buxoriy hayoti va faoliyati bilan bog'liq ayrim adabiyotlarni tadqiq etishda shu jihat ko'zga tashlanadiki, turli soha vakillari tomonidan yaratilgan turli adabiyotlar o'rtasida ayrim nomutanosibliklar mavjud.

Jumladan, Buxoriy tomonidan yaratilgan "Al-jome' as-sahih" asaridagi hadislar masalasida tarix faniga oid deyarli barcha asarlarda ularning soni 7275 ta sifatida keladi. Lekin maktablar uchun mo'ljallangan adabiyot darsliklarida ularning soni 7397 ta sifatida keltirilgan. OTM ga kirish imtihonlarida ushbu ma'lumotlardan foydalanish mumkinligini inobatga olsak, ushbu jarayon abituriyentlar orasida tushunarsiz holatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Bundan tashqari Buxoriyning tavallud sanasi 810-yil 20-iyulda ekani ishonchli ma'lumot ekani aytilsa-da, buni inkor qiluvchi ma'lumotlar ham bor. Masalan Ahmedov S. va boshqalar tahriridagi Adabiyot darsligida Buxoriyning tavallud sanasi 810-yil 21-iyun sifatida keltirilgan. Ushbu jarayon Buxoriy shaxsiyatiga qiziquvchi kitobxonlar uchun tushunarsiz bo'lishi va ularda manbalarga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini keltirib chiqarishi mumkin.

Buxoriyning Buxoro amiri bilan kelishmovchiligi sababiga to'xtalenganda ham 2 xil qarash mavjud: tarixga oid kitoblarda sabab sifatida yuqorida keltirganlarimiz, ya'ni Buxoriydan o'zining 2 ta asarini o'qib berishi talab qilingani keltiriladi. Lekin Ahmedov S. va boshqalar tahriri ostidagi Adabiyot darsligida nizo sababi sifatida Buxoro amiri Buxoriydan o'z o'g'illariga saroyga kelib, alohida ta'lim berishni talab qilgani va Buxoriy bunga rad javobini berganligi ko'rsatiladi. Shu va shu kabi nomutanosibliklarga oydinlik kiritib, yakdil to'xtamga kelish tadqiqotchilar uchun eng to'g'ri yo'l bo'ladi.

### XULOSA

Ushbu maqolada Imom al-Buxoriy haqida keltirilgan ma'lumotlarni qaysidir ma'noda "dengizdan tomchi" deyishimiz mumkin. Chunki Imom al-Buxoriy shu darajada buyuk va foydali faoliyat olib borgan ajdodimiz hisoblanadiki, bu insonning hayot yo'lini bir yoki bir nechta maqola orqali ifodalash imkonsiz jarayon hisoblanadi. Lekin shunday bo'lsa-da Buxoriy hayoti va faoliyatini qo'limizdan kelganicha tadqiq etishga harakat qildikki, bu ishni Buxoriy avlodi sifatida shaxsiy burchimiz deb bildik. Buxoriy haqida ko'proq bilimga ega bo'lishning o'zi ham insonda sharaf, g'ururlanish, ibrat olish tuyg'ularini shakllantiradi, har bir vatandoshga maroq bag'ishlaydi.

Imom al-Buxoriy o'zining muhaddislik faoliyati, umrining katta qismini ilmga bag'ishlash orqali butun musulmon olamiga Qur'oni Karimdan keyingi o'rinda turuvchi manbani tuhfa etgan buyuk ulamo hisoblanadi. Uning birgina "Al-jome' as-sahih" asaridan o'rin olgan hadislarni har bir muslim va muslima uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Buxoriyning ilmiy faoliyati davomida islom olami uchun qilgan xizmatlaridan kelib chiqqan holda bugungi kunda ham bu zotni butun islom olami cheksiz hurmat va ehtirom bilan yodga olishadi. Turli xil arab mamlakatlarida bo'lgan yurtdoshlarimiz katta taassurot bilan qaytishadi. Chunki mamlakat hayotida islom dini katta o'ringa ega bo'lgan davlatlar, jumladan, arab mamlakatlari ham u yerga tashrif buyurgan yurtdoshlarimizni tom ma'noda Buxoriy avlodi sifatida bilishadi va yurtdoshlarimizga cheksiz hurmat, alohida imtiyozlar taqdim etishadi.

Biz mana shunday buyuk insonlarning avlodimiz. Bizdan yana yangi Buxoriylar yetishib chiqishi uchun biz, avvalo, Buxoriy kabi buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishimiz zarur ekanligini hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak. Buning uchun, albatta, yangi Buxoriylarni tarbiyalab, yetishtira oladigan ma'rifatli onalarga doimiy ehtiyojimiz bor. Bugungi kunda yurtimizda

## TARIX

xotin-qizlarga ta'lim tizimida berilayotgan keng imtiyozlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham aynan Buxoriy bobomizning onalari kabi onalar yetishtirishdir.

## REFERENCES

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik, I qism). –T.: Sharq, 2015. -176 b.
2. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha). –T.: Sharq, 2017. -160 b.
3. Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi (I kitob). –T.: VNESHINVESTPROM, 2019. –637 b.
4. O'roqov D., Sharopov A. O'zbekiston tarixidan universal qo'llanma. –T.: Akademnashr, 2013. -656 b.
5. <https://arboblar.uz/uz/people/imam-ismail-al-bukhari> 05.01.2024
6. <https://bilimlar.uz/imom-al-buxoriy-haqida-hayoti-va-ijodi/> 05.01.2024
7. <https://www.bukhari.uz/?p=25469&lang=oz> 05.01.2024